

YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGI**Madaminov Oribdjan Nishanbayevich***Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu uslubiy qo'llannia ko'p yillik kuzatuvlar asosida tayyorlangan bo'lib, futbol seksiyasida shug'ullanuvchi o'quvchi yoshlarni har tomonlama tayyorlash, texnik-taktik, jismoniy, funksional, ruhiy tayyorgarligini yaxshilash va ularning mazmuniga oid nazariy bilimlarni umumlashtirgan va ixtisoslashtirilgan futbol maktab - internatlari, bolalar va o'smirlar sport maktablarining futbol guruhlari mashg'ulotlarida foydalanish uchun mo'ljallangan. Undan bolalar va o'smirlar maktabining futbol bilan shug'ullanuvchilarini boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari murabbiylari, jismoniy tarbiya bo'yicha tashkilotchiyo'riqchilar, sport faoliyati yo'nalishi talabalari, magistrlar va o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilari va barcha futbol o'yini ixlosmandlari foydalanishlari mumkin.*

Kalit so'zi: *Jismoniy madaniyat, jismoniy sifat, professional futbol.*

Abstract: *The rapid growth of the volume of educational and scientific information in the conditions of developing scientific and technological progress inevitably leads to a change in the educational and training process. The main thing is the change of training sessions, the versatile development of technical preparedness, replenishment of the fund of motor skills and abilities. It is known that the technical readiness of football players is one of the most important factors on which the activity and effectiveness of team, group and individual actions depend.*

Key words: *professional football, technical training, physical training*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 15 fevraldag'i "Madaniyat va sport sohasida boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalaridan biri "jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi keng qatlamini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlaridagi yutuqlarini targ'ib qilish va uning keng e'tirof etilishiga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda, sport tayyorgarligi jarayoniga zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi, sport turlari bo'yicha milliy chempionatlar darajasi va sifatini oshirish" deb belgilab qo'yildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi sport maktablarida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarni har tomonlama jismoniy rivojlantirish, ularni jahon arenalarida munosib ishtiroy etishlari uchun sharoitlar yaratish, o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Yoshlarni sog'lom va baquvvat tarbiyalashda sport turlari orasida sport o'yinlari(basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi) ham o'ziga xos ahamiyatga ega.Sporto'yinlari qiziqarliligi va ommaviyligi bilan millionlab kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Zamonaviy sportda o'ta tezkor va mahorat, g'ayrat talab qiluvchi turlar sport o'yinlaridir. Yuqori darajali

texnika va taktikaga erishish uchun birinchi navbatda sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchilar yyetarli ravishda jismoniy rivojlangan hamda maxsus sifatlarga ega bo'lishi kerak.

Sport o'yinlari bilan tashkillanadigan mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilarda axloqiy, jamoa uchun jon kuydirish, mas'uliyat kabi sifatlar tarbiyalanadi. Sport o'yinlari tezkor dinamik sport turlari bo'lib o'yinchidan katta jismoniy tayorgarlikni talab etadi, chunki sport o'yinlari jarayonida shug'ullanuvchilar ko'p marotaba sakraydilar, turli xil harakatlar bilan maydonda o'z o'rmini almashtiradi, hujum va himoya harakatlarini bajaradi. Bu harakatni deyarli barchasi harakat paytida bajariladi.

Zamonaviy sport o'yinlarida samarali o'yin ko'rsatish va yuqori natijalarga erishish faqat o'ta shakllangan jismoniy tayyorgarlik evaziga amalga oshirilishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport mamlakatni ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor masalalaridan biriga aylandi. Hukumatning jismoniy tarbiya va sportni, jumladan futbolni tobora rivojlantirib borishga yo'naltirilgan qarorlari buning yorqin dalilidir.

Professional va ommaviy futbolni yanada rivojlantirish hamda sportchilarning yosh avlodini tarbiyalash mamlakatimiz futbolining xalqaro mavqeyini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan uchta qaror, ya'ni "O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (18.03.1993 y), "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (17.01.1996), "O'zbekiston futbolini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini yaxshilash va unga yordam ko'rsatish chora-tadbirlari to'g'risida" gi (6.07.1998 y) qarorlar qabul qilindi. Prezident ayniqsa, bolalar va o'smirlar sportining ommaviy turlarini keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli farmonida "...jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'ligini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud" deb alohida ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli farmonida esa aholi o'rtasida ommaviy sport turlarini, jumladan, futbol sport turini ham rivojlantirish ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Ma'lumki futbol o'yini hozirgi kunda dunyodagi birinchi raqamli sport turiga aylangan. U dunyo xalqlari o'rtasida do'stlikni va hamkorlikni rivojlantirishda asosiy vositalardan hisoblanadi. U ko'p sonli bolalarning sevimli mashg'uloti bo'lib, hamma joyda xoh Afrika qit'asi bo'lsin, xoh Amerika qit'asi bo'lsin, xoh Yevropa yoki Osiyo qit'asi bo'lsin futbol bilan shug'ullanuvchilar millionlab topiladi. Shu bilan birga futbol keng xalq ommasini jismoniy rivojlantirishning, uning salomatligini mustahkamlashning eng hammabop va eng ommaviy vositasidir.

Futbol sport turi – o‘z mohiyati, mazmuni va turli o‘yin malakalari va kombinatsiyalari bilan minglab kishilarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Futbol hozirgi kunga kelib, butun dunyoda bo‘yicha birinchi raqamli o‘yin hisoblanadi.

Futbol o‘yini asosiy harakat sifatlarini harakati tezligi va aniqligini, chaqqonlikni, kuchni, chidamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashmoqda.

Zamonaviy futbol o‘ta tezkorligi va katta g‘ayrat talab qiluvchi sport o‘yinlari turiga mansubdir. Yuqori texnik-taktik mahoratga sazovor bo‘lish uchun birinchi navbatda futbolchilarning jismoniy sifatlari mukammal darajada rivojlangan bo‘lishi kerak. Mazkur sifatlarni o‘yin fikrlovi birligidagi boshqarilishi musobaqa g‘alabasini ta’minlaydi.

Sport o‘yinlaridagi bir qator ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or amaliyotning ko‘rsatishicha, sport takomillashuvi jarayonini boshqarishni optimallashtirish uchun sportchilar musobaqa faoliyatini pedagogik nazorat qilish tizimi bo‘lishi zarur.

Sport o‘yinlari sohasidagi mutaxassislarining hisoblashlaricha mashg‘ulot jarayoni boshqarish nazariyasi tamoyillari asosiga qurilishi lozim. Ularning fikricha, hozirgi paytda sportchilar organizmidagi o‘zgarishlarni o‘rganishda tizimli yondashish usuliyatini ishlab chiqish hamda qo‘llash zaruriyati tug‘ildi.

Buni sportchilarning musobaqalar va mashg‘ulot sharoitlaridagi holatlarini qiyosiy baholash asosida amalga oshirish joiz.

Sportda kompleks nazorat-bu sportchi holati, mashg‘ulot nagruzkalari, harakatlarining bajarilish texnikasi sport natijalari dinamikasi, sportchining musobaqalarda o‘zini tutishi, mashg‘ulot samarasini nazorat qilishdir.

Yosh futbolchilar tayyorgarligi darajasini baholash organizm rivojlanishining yosh xususiyatlari, futbol bilan muntazam shug‘ullanishning tayyorgarlikning har xil tamoyillariga ta’siri hamda tayyorgarlik bosqichini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kompleks nazorat natijalari o‘quv-mashg‘ulot jarayoni samaradorligi hamda futbolchilar tayyorgarligini individuallashtirish mezoni hisoblanadi. Kompleks nazorat natijalari asosida mashg‘ulot nagruzkalariga (yuklamalariga) tuzatishlar kiritiladi, mashg‘ulotlar va nagruzkalarni sportchi holatiga moslashtirish imkonи yaratiladi, futbolchilar holatini tezkor, joriy va bosqichli baholash bajariladi.

ADABIYOTLAR:

1.Bahodirovna, K. B. (2023). Improving the System of Professional Training of Future Teachers Using Musical Rhythmic Gymnastics (Using the Example of Physical Education Teachers). American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 13-18.

2.Bakhodirovna, K. B. (2023). RESEARCH OF MORPHOLOGICAL FEATURES AND PHYSICAL DEVELOPMENT OF YOUTH. Global Book Publishing Services, 1-99.

3.Хайтбаева, Б. (2023). СОДЕРЖАНИЯ УПРАЖНЕНИЙ РИТМИЧЕСКОЙ ГИМНАСТИКИ С ЭЛЕМЕНТАМИ КЛАССИЧЕСКОЙ АЭРОБИКИ. IJODKOR

O'QITUVCHI, 3(27), 110-115.

4.Хайтбаева, Б. (2023). ВОЗДЕЙСТВИЕ РИТМИЧЕСКОЙ ГИМНАСТИКИ НА

ОРГАНИЗМ ЗАНИМАЮЩИХСЯ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 1079-1084.

5.Bakhodirovna, K. B., & Kayumovna, R. M. (2022). FORMATION OF MOTOR CULTURE OF STUDENTS IN THE LESSONS OF RHYTHMIC GYMNASTICS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(10), 118-124.

6.Bahodirovna, X. B. (2022). The use of rhythmic gymnastics in the practice of school physical education teachers on the example of the city of fergana. International Journal of Pedagogics, 2(05), 1-4.

7.Bahodirovna, X. B., & Ilxomjonovich, I. I. (2022). THE USE OF RHYTHMIC GYMNASTICS IN THE PHYSICAL EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN ON THE

EXAMPLE OF THE CITY OF FERGANA. International Journal of Pedagogics, 2(05), 9-12.

8.Ilxomjonovich, I. I., Tolanovich, Y. T., & Baxodirovna, H. B. (2021). Physical Education In The Structure Of Professional Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(03), 226-229.

9.Baxodirovna, X. B. (2021). Rhythmic gymnastics in the system of physical education. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(12), 25-29.

10.Nishanbayich, M. O. (2023). VOLEYBOLCHILARNI TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS USULLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(31), 212-216.

11.Nishanbayich, M. O. (2023). Different Methods in Volleyball Training Application Methodology. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 35-38.

12.Madaminov, O. (2023). USE OF DIFFERENT METHODS IN PREPARING VOLLEYBALL PLAYERS FOR COMPETITIONS. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(5), 49-53.

13.Мадаминов, О. Н. (2023). УЛУЧШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ И ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА У ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 192-196.

14.Orifjon, M. (2023). A scientific-methodical approach to improving the individual skills of young football players. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(02), 39-43.

15.Nishanbayevich, M. O. (2022). FOOTBALL AS A BASIC TOOL PHYSICAL EDUCATION OF STUDENTS. Евразийский журнал академических исследований, 2(2), 462-466.

16.Мадаминов, О. (2022). ВОЛЕЙБОЛ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ВУЗА. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 30-36.

17.Мадаминов, О. (2022). ПРОБЛЕМЫ СУДЕЙСТВА В СПОРТЕ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(25), 41-46.

- 18.Nishanbayevich, M. O. (2022). Volleyball as a Means of Developing Physical Qualities of University Students. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 89-94.
- 19.Madaminov, O. (2021). The role of the volleyball game in the system of physical education (A look at history). Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1472-1477.
- 20.Рўзиева, М. К. (2022). ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ВА СПОРТ СОҲАСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТИГАЧА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. Science and innovation, 1(B2), 254-258.
- 21.Qayumovna, R. Z. M. (2023). KO 'P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMIDA SUZUVCHILARNI SARALASH VA YO 'NALTIRISH. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 465-469.
- 22.Рўзиева, М. (2023). ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ФИЗИЧЕСКИМ УПРАЖНЕНИЯМ. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 833-838.
- 23.Рузиева, М. К. (2022). Жисмоний маданият ўқитувчиларининг коммуникатив компетенциясини юксалтириш зарурияти. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 12-17.
- 24.Nishanbayevich, M. O. (2022). Outdoor Games in The System of Physical Culture and Sports in Higher Education. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 5, 18-20.
- 25.Orifjon, M. (2021). No one can make the country famous in sports. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 908-911.